

MINTAQA SANOATIDA RAQAMLI XIZMATLAR BOZORINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY VA AMALIY ASOSLARI.

Norov Murod Maxmudovich

Qarshi davlat texnika universiteti

mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. Mazkur tezisda mintqa sanoatida raqamli xizmatlar bozorini shakllantirishning nazariy va amaliy asoslari tahlil qilinadi. Tadqiqotda raqamli xizmatlar bozorining iqtisodiy ahamiyati, shakllanish mexanizmlari va rivojlanish tendensiyalari yoritiladi. Shuningdek, mintqa sanoatining raqamli transformatsiyasida biznes axborot bazalarining roli, innovatsion infratuzilma va kadrlar salohiyatini oshirishning samaradorligi baholanadi. Tadqiqot natijalari mintqa sanoatida raqamli xizmatlar bozorini rivojlantirishning strategik yo'nalishlarini aniqlash, iqtisodiy samaradorlikni oshirish va hududiy raqobatbardoshlikni kuchaytirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: raqamli xizmatlar, mintqa sanoati, bozor shakllantirish, biznes axborot bazasi, raqamli transformatsiya, innovatsion infratuzilma, iqtisodiy samaradorlik, hududiy raqobatbardoshlik

Kirish. So'nggi yillarda global iqtisodiy transformatsiya va raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi mintqa sanoatining barqaror o'sishi va raqobatbardoshligini oshirishda muhim omilga aylangan. Ayniqsa, raqamli xizmatlar bozori mintqa sanoatining modernizatsiyasi, innovatsion salohiyatini oshirish va biznes faoliyatining samaradorligini ta'minlashda markaziy rol o'ynaydi. Raqamli xizmatlar bozorini shakllantirish jarayonida nafaqat texnologik yechimlar, balki biznes axborot bazalari, kadrlar salohiyati va institutsional qo'llab-quvvatlash tizimlari ham muhim ahamiyatga ega.. Raqamli xizmatlar bozori nafaqat ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish jarayonlarini avtomatlashtirish imkonini beradi, balki hududiy sanoatning raqobatbardoshligini oshirish, yuqori qo'shimcha qiymat yaratish va xalqaro bozorlarga integratsiyasini jadallashtirishga xizmat qiladi. Shu sababli, mintqa sanoatida raqamli xizmatlar bozorini shakllantirishning nazariy asoslarini o'rganish va amaliy tadbiriq yo'nalishlarini aniqlash ilmiy va amaliy jihatdan katta ahamiyat kasb etadi. Mazkur tadqiqotning maqsadi mintqa sanoatida raqamli xizmatlar bozorini shakllantirishning nazariy va amaliy asoslarini tahlil qilish, biznes axborot bazasining rolini aniqlash va sanoatning raqamli transformatsiyasini samarali boshqarish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Asosiy qism. Sanoatda tuzilmasini iqtisodiy jihatdan turkumlaydigan bo'lsak, unga asosan quyidagi tabiiy resurslar tafovut etiladi.

1. Umumiy ahamiyatga molik tabiiy resurslar;
2. Moddiy ishlab chiqarish resurslari;
3. Xizmat ko'rsatish sohasi resurslari, shu jumladan:



-bevosita iste'mol qilinadigan resurslar (masalan, k'kalamzor joylar va suv havzalaridan dam olish uchun foydalanish).

Ikkinchi bosqichda qonuniyatlar asosida axborotlar bazasi modeli tuziladi. Ularni tizimda o'rganilayotgan jarayonga ta'sir ko'rsatuvchi omillarning barchasini bir vaqtning 'zida hisobga olib bo'lmaydi, chunki matematik model juda murakkablashib ketadi. Shuning uchun model tuzishda eng kuchli ta'sir etuvchi asosiy omillargina hisobga olinadi. Biz bu 'rinda viloyatimiz sanoat tuzilmasining axborot tizimini rivojlantirish y'llarini belgilovchi omillarni tanlab oldik:

- Mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy tavsifnomasi, urbanizatsiya darajasi, sanoatning ishchi xodimlarini kasbiy mahorat sohasidagi tuzilishi;
- Mintaqaning milliy tavsifnomasi, sanoatning milliy xususiyatlari, tarkibi, soni;
- Mintaqada sanoat tuzilmasini moddiy-texnik bazasining tavsifnomasi, transport tarmog'i va uning rivojlanish istiqbollari.

Takror barpo qilinishi va qilinmasligi nuqtai - nazardan tabiiy resurslar ikki xil bo'ladi:

Tiklanadigan tabiiy resurslar ('simliklar, tuproq, suv, hayvonot olami) va tiklanmaydigan tabiiy resurslar (neft, gaz, k'mir va xakozo). Ushbu tadqiqotda mintaqa Sanoatdada raqamli xizmatlarni rivojlantirish mexanizmining ma'lumotlar bazasini yaratishda axborot tizimining ta'minotini modellashtirishda tamoyillar va ustuvor vazifalar ishlab chiqilgan. Rasmdan ko'rib turganimizdek, ma'lumotlar bazasini yaratishda k-modellashtirish bosqichlari amalga oshiriladi (3.1-rasm).



3.1-rasm. ma'lumotlar bazasini yaratishda k-modellashtirish bosqichlari¹⁸

Model o'rganilayotgan obyekt xususiyatlarini hech qachon o'zida to'la mujassam qilmaydi. U har xil faraz va cheklanishlar asosida tuzilgani uchun taqribiy harakterga ega. Demak, uning asosida olinayotgan natijalar ham taqribiy bo'ladi. Modelning aniqligi, natijalarning ishonchlilik darajasini baholash masalasi axborotlar ta'minotining asosiy masalalaridan biridir. Birinchi bosqichda masalaning aniq qo'yilishi, berilgan va izlanuvchi miqdorlar, obyektning modelini tuzish uchun ishlatish lozim bo'lgan endogen boshqaruvchi parametrlar kiritiladi. Uchinchi bosqichda sonli usullar yordamida aniqlangan algoritm asosida biror-bir algoritmik tilda Ma'lumotlar bazasini boshqarish tizimi (MBBT)da ishlatish uchun dastur tuziladi. Masalan, u umumiy xususiyatga ega bo'lishi kerak, ya'ni matematik modelda ifodalangan masala parametrlarining yetarlicha katta sohada o'zgaruvchi qiymatlarida dastur yaxshi natija berishi kerak. Oxirgi bosqichda dastur (MBBT)ga

Xulosa.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, mintaqa sanoatida raqamli xizmatlar bozorini shakllantirish nafaqat iqtisodiy samaradorlikni oshirish, balki hududiy raqobatbardoshlikni kuchaytirish va innovatsion salohiyatni rivojlantirishda muhim

omil hisoblanadi. Raqamli xizmatlar bozorining rivojlanishi ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish jarayonlarini avtomatlashtirish, yuqori qo'shimcha qiymat yaratish va mintaqa sanoatini xalqaro bozorga integratsiyalashuvini jadallashtirishga xizmat qiladi. Shuningdek, biznes axborot bazalarining samarali shakllanishi va qo'llanilishi raqamli xizmatlar bozorining barqarorligini ta'minlash, strategik qarorlar qabul qilish va innovatsion faoliyatni rag'batlantirish imkonini beradi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, mintaqa sanoatida raqamli xizmatlar bozorini shakllantirishda integratsiyalashgan yondashuv, innovatsion infratuzilma va kadrlar salohiyatini rivojlantirish ustuvor vazifalar sifatida ajralib turadi. Xulosa qilib aytganda, nazariy va amaliy asoslarda raqamli xizmatlar bozorini shakllantirish mintaqa sanoatining uzoq muddatli raqobatbardoshligini oshirish, iqtisodiy o'sishni jadallashtirish va barqaror rivojlanishni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. q'yiladi va olingan sonli natijalar chuqur tahlil qilinib, baholanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi. – Toshkent, 2020.
2. O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi. Raqamli iqtisodiyot va xizmatlar bo'yicha statistik to'plamlar. – Toshkent, 2021–2024.
3. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi. Hududiy sanoat va raqamli xizmatlar bozorini rivojlantirish bo'yicha tahliliy hisobotlar. – Toshkent, 2022.
4. World Bank. World Development Report 2023: Digitalization for Inclusive Growth. – Washington, DC, 2023.
5. UNCTAD. Digital Economy Report 2022: Value Creation and Capture. – Geneva, 2022.